ISSN: 2181-3906
2024

International scientific journal
«MODERN SCIENCE AND RESEARCH»
VOLUME 3 / ISSUE 12 / UIF:8.2 / MODERNSCIENCE.UZ

TURKIYADA INFLATSIYA DARAJASINING OSHISHINI PESTLE USULDA TAHLIL QILISH

Bobonazarova Dinora Zafar qizi
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti,
Siyosatshunoslik yo'nalishi 2-kurs.
dinorabobonazarova.2005@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.14517542

Annotatsiya. *Quyidagi maqola so'nggi 5 yillik ichida Turkiya davlatida inflaytsiya bo'yicha bo'lgan o'zgarishlarni tahlil qiladi. Nega pandemiya davridan so'ng mamlakatda inflyatsiya darajasi misli ko'rilmagan darajada yuqorilab ketganligini PESTLE tadqiqot usulidan foydalanib o'rganib chiqadi. Ya'ni pulning qadrsizlanishiga ta'sir qilayotgan har bir hukumat siyosati, iqtisodiy indekslar, ijyimoiy holatlar, texnologik yangiliklar, huquqiy va atrof-muhitga oid barcha holatlar miqdor va sifat usullardan foydalanilgan holda yoritib berilgan. Inflyatsiyaning o'sishi natijasida mamlakatda vujudga kelgan ko'plab norozilik harakatlarini oldini olish uchun bir qancha tavsiyalar ham aytib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *Inflyatsiya, pul qadrsizlanishi, geosiyosat, foiz stavkasi, tashqi qarz, fiskal siyosat, monetar siyosat, Markaziy bank, pul taklifi, erkin bozor, avtomatlashtirish, giperinflyatsiya.*

ANALYSIS OF THE INCREASE IN INFLATION RATE IN TURKEY USING THE PESTLE METHOD

Abstract. *The following article analyzes the changes in inflation in the country over the past 5 years. It examines why the inflation rate in the country has increased to an unprecedented level after the pandemic period using the PESTLE research method. That is, each government policy, economic indices, social conditions, technological innovations, legal and environmental conditions that affect the depreciation of money are covered using quantitative and qualitative methods. Several recommendations are also made to prevent the many protest movements that have arisen in the country as a result of the increase in inflation.*

Keywords: *Inflation, currency depreciation, geopolitics, interest rate, external debt, fiscal policy, monetary policy, Central Bank, money supply, free market, automation, hyperinflation.*

АНАЛИЗ PESTLE РОСТА ИНФЛЯЦИИ В ТУРЦИИ

Аннотация. *В статье анализируются изменения инфляции в Турции за последние 5 лет. Он исследует, почему уровень инфляции в стране вырос до беспрецедентного уровня после периода пандемии, используя метод исследования PESTLE. То есть каждая государственная политика, экономический индекс, социальная ситуация, технологические инновации, правовая и экологическая ситуация, влияющая на обесценение валюты, рассматривается с использованием количественных и качественных методов. Также упоминается ряд рекомендаций по предотвращению многочисленных протестных движений, возникших в стране в результате роста инфляции.*

Ключевые слова: *Инфляция, девальвация, геополитика, процентная ставка, внешний долг, фискальная политика, денежно-кредитная политика, Центральный банк, денежная масса, свободный рынок, автоматизация, гиперинфляция.*

KIRISH

Turkiyada hozirgi kundagi hukumatning eng katta muammosi bu inflatsiya darajasidir.

Inflatsiya davlat iqtisodi va rivojlanishi uchun muhim bo‘lgan ko‘rsatkichlardan biridir.

Inflyatsiya bu iqtisodda pulning qadrsizlanishidir. Inflyatsiya har doim har bir bozor uchun davlatda barqarorlikni saqlab turish uchun kerakli ko‘rsatkich. Lekin uning o‘sishi davlatning iqtisodiga salbiy ta‘sirlar ko‘rsatadi. Turkiya esa so‘nggi davrda juda katta inflatsiya darajasiga duch kelmoqda. Turkiyadagi so‘nggi 5 yildagi inflatsiya darajasini ko‘radigan bolsak;

2019-yilda 15.18%
2020-yilda 12.28%
2021-yilda 19.6%
2022-yilda 72.31%
2023-yilda 53.86%

Pandemiya davridan keyin juda katta inflyatsiya uchragan Turkiyada har bir siyosat va qonun unga katta ta‘sir qilmoqda. Endi esa bunchalik yuqori darajadagi inflatsiya darajasiga ta‘sir qiluvchi omillar va ularning ta‘sirini PESTLE tadqiqot usulida ko‘rib chiqamiz.

ASOSIY QISM

1.Siyosiy(political) omillar;

Turkiyadagi inflatsiyaning eng birinchi omillaridan biri bu hukumat tomonidan olib boriladigan **an’anaviy monetar siyosatdir**. Turkiya an’anaviy iqtisodiy nazariyasi bu davlat aralashuvi va bozorda hukumat rolini oshirish bilan bog‘liq. Ushbu nazariyaga ko‘ra davlat foiz stavkasini pasaytirish orqali iqtisodiy o‘sishni ta‘minlaydi. Yuqori inflatsiyaga qaramasdan hukumat foiz stavkasini kamaytirib, investitsiyalarni oshirishga e’tibor qaratgan. Markaziy bank tomonidan foiz stavkalarining pasaytirilishi tashqi va ichki bozorga katta ta’sir qilgan holda inflatsiyaning o‘sishiga olib keldi. Past foiz stavkasi ichki bozorda kridetlarga bo‘lgan talabni oshirdi va bu bevosita davlat xarajatlarining oshishiga sabab bo‘ldi. Hukumat o‘z xarajatlarini qoplash uchun ko‘p qog‘oz pul ishlab chiqardi va bu esa bevosita pul qadrsizlanishiga olib keldi.

Lekin bu siyosat davlat iqtisodi uchun katta zarar yetkazdi va bu siyosat xalqaro moliyaviy institutlar tomonidan qoralandi. Shuning uchun so‘nggi yillarda Markaziy bank inflatsiyani kamaytirish uchun foiz stavkasini keskin oshirib yubordi. 2024-yilda Markaziy bank foiz stavkasini 8 oy davomida o‘zgarmas 50 foiz deb e‘lon qildi. Pastdagi berilgan diagrammada so‘nggi yillardagi foiz stavkasini ko‘rishimiz mumkin.

Turkiyada inflatsiyaning o‘sishiga sabab bo‘luvchi yana bir siyosiy omillardan biri bu

Markaziy bankning mustaqilligining cheklanganligi va davlatning iqtisodga aralashuvi. Markaziy bank mustaqilligining cheklanganligi uni bevosita hukumat siyosatiga bog‘liqligini oshiradi. Xususan 2018-yilda prezident etib saylangan Rejep Tayyip Erdog‘on iqtisodda o‘zining an‘anaviy ya‘ni past foiz stavkasi siyosatini olib bordi. Bu esa Markaziy bankning foiz stavkasini pasaytirishi uchun doimo bosim o‘tkazilganidan dalolat beradi. Bundan tashqari hukumatning 2019-2021-yillar davomida bank raislarini 3 marta almashtirgani ichki bozor obyektlari va tashqi investorlarning Markaziy bank mustaqilligiga bo‘lgan ishonchini pasaytirdi. Xususan, foiz stavkasini 17 foizdan 19 foizga oshirgan Markaziy bank rahbari Naji

Agbal ham Erdog‘on tomonidan bo‘shatilgani bunga yorqin misoldir.

Hukumatning Markaziy bank faoliyatini bevosita nazorat qilishi bilan bir qatorda import sohasidagi cheklovlari inflatsiyaning o‘sishiga sabab boldi. Xususan, go’sht, don va sut mahsulotlari kabi qishloq xo’jaligi mahsulotlariga va elektronika, avtomobillarga nisbatan boj to’lovlarining oshirilishi ichki bozorda narxlarning oshishiga sabab boldi. Qo’shimcha bojlar hamda antidemping choralari xalqaro miqyosda valyuta kursining qadrsizlanishiga olib keldi.

Turkiyada so‘nggi yillardagi inflatsiyaga sabab bo‘layotgan yana bir narsa bu davlatning **geosiyosiy muammolaridir**. Turkiyaga qarshi AQSH, Buyuk Britaniya va Yevropa Ittifoqi tomonidan berilgan ko‘plab sanksiyalar mamlakatda liraning qadrsizlanishiga va chet el investitetsiyasining kamayishiga olib keldi. Xususan, 2021-yil yanvar oyida AQSH, Buyuk Britaniya va YI Turkiyaga xalqaro suverenitet qoidalarini buzganligi va noqonuniy qurol savdosi bilan shug‘ullanganligi uchun sanksiyalar e‘lon qildi. Shuningdek, 2020-yil dekabrda Turkiya Mudofaa Sanoat Agentligi Rossiyaning qurol eksport qiluvchi Rosoboreneksport kompaniyasidan yer-havo raketa tizimini sotib olganligi uchun AQSH tomonidan bu agentlikka qarshi sanksiya e‘lon qilindi. 2019-yilda esa hukumat O‘rtayer dengizi sharqida Kipr davlati qirg‘oqlarida gaz burg‘ulash ishlarini olib boradi va noyabr oyida YI tomonidan Kipr davlati ruxsatisiz bu ishni amalga oshirgani uchun sanksiya e‘lon qilinadi. 2020-yilda YI sanksiyalarni 12 oyga yani 2021-yil noyabrgacha uzaytirish tog‘risida qaror qiladi.Bu kabi sanksiyalar davlat iqtisodiga katta ta‘sir ko‘rsatgan holda mamlakatda importni cheklanishiga va milliy valyutaning xalqaro bozorda qadrsizlanishiga olib keldi. Bu esa bevosita inflatsiya darajasining oshishiga sabab boldi.

2.Iqtisodiy(economical) omillar;

Turkiyada inflyatsiyaga ta‘sir qiluvchu asosiy omillar bu iqtisodiy omillardir. Inflyatsiyaga ta‘sir qiluvchi eng muhim ko‘rsatkich bu yuqorida takidlab o‘tilganidek **past foiz stavkasidir**.

Aynan 2020-yil pandemiyadan keyin ko‘plab davlatlar inflyatsiyaning tezlashib ketmasligi uchun birinchi o‘rinda pul-kridet siyosatini qatiylashtirayotgan bir paytda Turkiyada prezident iqtisodiy o‘sishni ta‘minlash uchun foiz stavkasini pasaytirishga harakat qilmoqda. Natijada xalqaro bozorda liradagi aktivlar qadrsizlanishi kuchaymoqda. Buning natijasida esa **liraning rasmiy kursi** keskin qulamoqda. Masalan 2018-yilda 8 oy ichida valyuta kursi 75 foizga yani 1 dollar 3.7 dan 6.5 liragacha tushib ketgan. 2024-yil 30-noyabr holatiga ko‘ra esa liraning dollarga nisabatan kursi rekord darajada tushib, 1 dollar 13.7 lirani tashkil qilmoqda. Noyabr oyida valyuta o‘zining qiymatini 40 foizga, yil boshidan beri esa 2 baravarga yo‘qotdi deya ma‘lumot bermoqda Meduza nashri. Liraning qadrsizlanishi oqibatida davlatlarning Turkiya ichki bozoriga qiziqishi pasaydi va ko0plab davlatlar Turkiya tovarlariga nisbatan import bojini oshirib yubordi. Masalan, AQSH 2018-yilda Turkiyadan keladigan alyuminiyga nisbatan import bojini 25 foizdan 50 foizga oshirgan. Yevropa Ittifoqi ham turk po‘latiga nisbatan import bojini oshirgan. Bu esa davlat iqtisodiga ta‘sir qilmasdan qolmadi. Bu holatda esa hukumat o‘z xarajatlarini qoplash uchun **soliqlarni oshirish fiskal siyosatini** amalga oshirmoqda. 2023-yilda mamlakatda qo‘shilgan qiymat solig‘i 20 foizga, yoqilgpi uchun iste‘mol solig‘i ham qariyb 20 foizga, daromad solig‘idan foiz stavkasi 40 foizga, korporativ daromad solig‘i stavkasi 25 foizgacha oshirildi. Albatta bu davlatning inflyatsiyaga qarshi qilayotgan harakati bo‘lishiga qaramasdan, ko‘p hollarda bu yomon oqibatlarga, ayniqsa, aholining va tadbirkorlarning keskin noroziligiga sabab bo‘lmoqda.

Hukumat soliqlar bilan bir vaqtda oylik maoshlarni ham oshirishga majbur bo‘lmoqda.

Aholi daromadlarining oshishi natijasida ichki bozorda talab oshmoqda va iste‘molning oshishi hisobiga narxlar keskin darajada ko‘tarilmoqda.

Xususan, Turkiyada asosiy iste‘mol narxlari 2024-yil oktyabr oyida 2062.95 balldan noyabr oyida 2094.59 ballga ko‘tarildi. Bu 2003-yildan 2024-yilgacha 349.28 ball bo‘lib, tarixning eng yuqori ko‘tsatkichi edi. Iste‘mol narxlarining oshishi esa pulning qadrsizlanishiga sabab bo‘lmoqda.

Mamlakatda vujudga kelayotgan bunday holatlarda davlat o‘z xarajatlarini qoplash uchun chet davlatlardan katta miqdorda qarz olishiga to‘g‘ri kelmoqda. Hozirgi kunda Turkiyada o‘sib borayotgan inflyatsiyaga sabab bo‘layotgan yana bir omillardan biri bu **tashqi qarzd**ir. 2024-yil 1-choragiga ko‘ra davlatning tashqi qarzi 502328 million Aqsh dollarni tashkil qilgan. 2024-yilning 2-choragida esa bu qarz 511295 million dollarga ko‘paygan.

Bu 1989-yil bilan solishtirganda 243397 million dollarga farq qiladi. Tashqi qarzning ortib borishi o‘z navbatida birinchilardan bo‘lib milliy valyuta kursining pasayishiga sabab bo‘lmoqda.

Dollarga nisbatan liraning qadrsizlanishi tashqi qarzni to‘lashni yanada og‘irlashtiradi.

Undan tashqari lira kursining pastligi natijasida import mahsulotlarining ichki bozorda narxi oshib ketmoqda. Bir tomondan ichki bozorda narx o‘sishi kuzatilsa, tashqi bozorda esa chet el investerlorining Turkiya ichki bozoriga qiziqishi kamaymoqda. Aynan shunday bir holatda hukumat ichki barqarorlikni saqlash va tashqi qarzni kamaytirish uchun **pul taklif**ini oshirishga harakat qilmoqda. Davlat ko‘proq qog‘oz pul ishlab chiqaryapti.

Xususan, 2024-yil iyul oyida M0 580441189.90 ming TRY ga teng bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024-yil avgust oyida 605010603 ming TRY ga oshirilgan. Bu Turkiyada so‘nggi 20 yil davomidagi eng yuqori ko‘rsatkichli pul taklifi edi.

Davlat qanchalik ko‘p qog‘oz pul ishlab chiqarib, pul takligi M0 ni oshirsa, pul o‘z qadrini tez yo‘qota boshlaydi. Mamlakat iqtisodiyotida qog‘oz pulning qadri tushib ketadi. Buni mashhur olimlar Villiams va Adigagi(2007) lar ham o‘z tadqiqotlarida isbotlashgan.

Ularning tadqiqotlariga ko‘ra, Dominikan Respublikasida bo‘lib o‘tgan inflyatsiya o‘sishining asosiy omillaridan biri bu pul taklifining oshirib yuborilganligidir. Yana bir yorqin misollardan biri Germaniya Respublikasidir. Germaniya Ikkinchi jahon urushidan so‘ng repatriatsiyalarni to‘lash va o‘z xarajatlarini qoplash uchun mamlakatda katta miqdorda qog‘oz pul ishlab chiqargan.

Bu esa o‘z navbatida mamlakatda pulning keskin qadrsizlanishiga va giperinflyatsiyaga sabab bo‘lgan. Shu kabi Turkiyada ham pul taklifining oshishi inflyatsiyaning asosiy omillaridan biridir.

Hukumat o‘z xarajatlarini qoplash va tashqi qarzni to‘lash uchun og‘ir vaziyatda pul taklifini oshirib yubormoqda. Shuning uchun ham hukumat pul taklifini oshiryotganda davlatdagi holatni chuqur o‘rganib chiqishi kerak.

Davlatning har biri harakati iqtisodga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Pastdagi diagrammalarda Turkiya tashqi qarzi va pul taklifining o‘sish sur’atlarini ko'rishimiz mumkin.





3.Ijtimoiy(social)omillar;

Turkiyada inflyatsiyaga ta’sir qiladigan siyosiy, iqtisodiy omillarni ko‘rib chiqdik. Endi esa ijtimoiy islohotlarning inflyatsiyaga ta’sirini o‘rganib chiqamiz. Avvalo shuni unitmaslik kerakki, har bir iqtisodiy va siyosiy harakatlar bevosita ijtimoiy islohotlarga bog‘liqdir.

Birinchilardan bo‘lib jamiyatda **ijtimoiy himoya** masalasini ko‘rib chiqamiz. Har bir demokratik davlat ijtimoiy himoyani rivojlantirishga harakat qiladi. Turkiya ham so‘nggi yillarda rag‘banlantiruvchi fiskal siyosat olib borib, aholi uchun ijtimoiy yordamlarni oshirishga harkat qilmoqda. O‘z navbatida hukumat narxlar tez o‘sayotgan holatda avvalo eng kam osh haqi miqdorini oshirmoqda. Masalan, 2023-yil oxirida Turkiyada eng kam ish haqi oyiga 13414 TRY ni tashkil qilgan. 2024-yilda esa 20002.50 TRY ga oshirilgan. 1992-yilda eng kam ish haqi 1.5 TRY bo‘lgan. 2024-yildagi holat tarixdagi eng yuqori ko‘rsatkich hisoblanadi.

Bu bir tomondan aholi uchun yaxshi. Lekin boshqa tomondan qaraydigan bo‘lsak, aholi daromadlarining oshishi ularning istemol xarajatlarining oshishiga olib keladi. Insonlar daromadlari oshgani sari bozordan ko‘proq narsa sotib olishga xarakat qilishadi. Oylik maoshlar oshgan bir paytda davlatda so‘nggi yillarda iste‘mol xarajatlari ham oshmoqda. Xususan, 2020-yilda istemol xarajatlari umuniy miqdorda $408.92 milliardni tashkil qilib, bu 2019-yildagiga nibatan 5.56 foizga pasaygan. Bu paytda xarajatlarning pasayishiga asosiy sabab pandemiya hisoblanadi. 2021-yilda esa bu ko‘rsatkich $452.94 milliard bo‘lib, 2020-yilga nisbatan 10.76 foizga oshgan. 2022-yilda esa $519.85 milliard bo‘lib, 2021-yilga nisbatan 14.77 foizga ko‘tarilgan. 2023-yilda esa istemolchilarning xarajatlari $658.19 milliardni tashkil qilib, bu 2022-yilga nisbatan 26.61 foizga oshgan.

Statistikalar shuni ko‘rsatadiki davlatda iste‘mol xarajatlari yildan yilga o‘sib bormoqda. Daromadlarning oshishi mahsulotga bo‘lgan talabni oshirmoqda. Istemolchi talabi oshgan bir paytda bozor narxlarni erkin qo‘yib yuboradi va narxlar keskin ko‘tarilib ketadi. Narxlarning oshishi esa pulning qadrsizlanishiga sabab bo‘ladi. Bundan tashqari Turkiyaning ijtimoiy himoyani rivojlantirish uchun subsidiyalarni oshirishi ham davlat xarajatlarini ko‘paytirmoqda. So‘ngi yillarda inflyatsiyaning o‘sishiga sabab bo‘layotgan yana bir omillardan biri bu jamiyatdagi norozilik harakatlaridir. 2024-yilda Turkiyaning turli shaharlarida hukumatga qarshi ko‘plab isyonlar bo‘lib o‘tdi.

Masalan, Istanbulda aholining hukumatni shahar markazidagi yashil bog o‘rniga savdo markazi qurish to‘g‘risidagi qaroriga qarshi norozilik harakati bo‘lib o‘tdi. Olomon hukumatni yashillikni yo‘q qilayotganlikda va 2002-yildan beri hokimiyatni boshqarayotgan Rejep Tayyip Erdog‘onni yakka hokimlikda ayblashdi. Buni bostirish uchun hukumat qurolli kuchlardan foydalandi va kattagina xarajat qildi. Bunday noroziliklar davlatda ko‘plab sodir bo‘lmoqda. Bu kabi harakatlar xalqaro miqyosda Turkiya obro‘yiga putur yetkazmoqda va chet el investerlarining ishonchini yo‘qotmoqda. Bu kabi holatlar mamlakat iqtisodiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

4.Texnologik (Technological) omillar.

Texnologik omillar inflyatsiyani boshqarishda yoki unga ta’sir ko‘rsatishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu omillar ishlab chiqarish samaradorligi, import-eksport hajmi, raqamlashtirish darajasi, va ichki texnologik taraqqiyot orqali iqtisodiy muhitga ta’sir qiladi. 2019-2024 yillarda Turkiyaning texnologik rivojlanish holati, ayniqsa innovatsiyalar va ichki ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish jarayoni, bir qator muammolarni o‘z ichiga olgan. Ushbu davrda innovatsion texnologiyalarning yetishmasligi va importga qaramlik iqtisodiyotda inflyatsiya darajasiga ancha ta’sir ko‘rsatdi. Jahon banki malumotlariga ko’ra Turkiya yalpi ichki mahsulotning (YIM) atiga **1,09%** qismini ilmiy-tadqiqot va rivojlanish faoliyatiga yo‘naltirgan (2022 yilda). Bu ko‘rsatkich OECD mamlakatlari o‘rtacha ko‘rsatkichidan (2-3%) ancha past. Tadqiqotlarning cheklanganligi texnologik rivojlanish va ichki ishlab chiqarish jarayonlariga salbiy ta’sir ko‘rsatgan.

So’ngi 5 yil davomida Turkiyada startaplar soni o‘sdi, ammo global raqobatga kirishish uchun texnologik qo‘llab-quvvatlash va moliyalashtirish yetarli darajada emas edi. Turkiyada ko‘plab sanoat tarmoqlari hali ham past samaradorlik bilan ishlamoqda. Mahalliy korxonalar avtomatizatsiya va raqamlashtirish imkoniyatlaridan kamroq foydalanadi. Bu mehnat unumdorligini pasaytiradi, zamonaviy texnologiyalar va avtomatlashtirilgan tizimlarni joriy qilish yetarlicha amalga oshirilmagani ishlab chiqarish **tannarxini** oshirdi. Ishlab chiqarish sektori asosan o’rta texnologiyali mahsulotlarga tayanadi, bu 2022 yilda eksportning 39 foizini tashkil etgan bo’lsa, yuqori texnologiyali mahsulotlardan atigi 5 foizni tashkil etgan.

Shuning uchun Turkiya hukumati sanoatni raqamli o‘zgartirishga davlat tomonidan 1-1,5 milliard dollar sarmoya kiritish orqali yuqori texnologiyali ishlab chiqarish va eksportni oshirish siyosatini amalga oshirmoqda (2023). Energiya tejamkor texnologiyalarning sust rivojlanganligi yuqori energiya sarfini keltirib chiqaradi. Elektr energiyasiga bo‘lgan xarajatlar **2022 yilda 400% ga oshdi**, bu esa ishlab chiqarish tannarxiga, inflatsiya darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatdi (MFAT). Turkiya energiya resurslarini import qilishga qattiq bog’lanib qolgan. Mahalliy energiya texnologiyalarining rivojlanishi va qayta tiklanadigan energiya manbalariga o‘tish import xarajatlarini kamaytirishi mumkin. Sanoat va transportda energiya tejovchi texnologiyalarni kengroq joriy qilish tannarxni pasaytirishi va mahsulot narxlarini barqarorlashtirishi mumkin.

5.Atrof-muhit (environmental) omillar.

Turkiyaning qishloq xo’jaligi sektori iqlim bilan bog’liq xavflarga, ayniqsa qurg’oqchilik va haddan tashqari haroratga juda zaif. Bu omillar nafaqat ekinlar hosildorligini pasaytiribgina qolmay, balki oziq-ovqat narxlarining oshishiga olib keladi, bu esa inflyatsiyaning oshishiga sabab bo’ladi. Suv tanqisligi qishloq xo’jaligi hududlarida sug’orish uchun xarajatlarning oshishiga va bug’doy kabi suvni ko’p talab qiladigan ekinlarni yetkazib berishning qisqarishiga olib keladi**.**

Potsdam iqlim ta'sirini o'rganish instituti tomonidan olib borilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, suv toshqini va qurg'oqchilik kabi iqlim sabab bo'lgan tabiiy ofatlar Turkiya kabi mamlakatlarda har yili inflyatsiyani **0,5-1,5 foiz** darajaga oshirishi mumkin. Turkiya qayta-qayta qurg'oqchilikka duch kelar ekan, suv resurslarining tanqisligi oziq-ovqat xavfsizligini yanada kuchaytirib, qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxini oshirmoqda. Misol uchun, haddan tashqari harorat o'tgan qurg'oqchilik yillarida bo'lgani kabi, hosildorlikning **25%** gacha pasayishiga olib kelishi mumkin. 2020 yilda Turkiya qattiq qurg'oqchilikni boshdan kechirdi va bu oziq-ovqat narxlarining **12%** ga oshishiga olib keldi (IMF). Iqlim o'zgarishi energiya narxlariga ham ta'sir qiladi, bu inflyatsiyaga bevosita ta'sir qilishi mumkin. Turkiyaning import qilinadigan energiyaga tayanishi (uning energiya ehtiyojlarining 70% dan ortig'i) uni energetika qaramligiga sabab bo'ladi va inflyatsiya beqarorligi olib keladi. Masalan, 2022 yilda Ukraina mojarosi tufayli kuchaygan global energiya narxining oshishi Turkiyada energiya narxining 25% ga oshishiga olib keldi. Bundan tashqari Haroratning ko'tarilishi sovutishga bo'lgan talabni oshiradi, ayniqsa juda issiq mavsumlarda. Natijada energiya narxi keskin oshishi mumkin. Turkiyaning energetika sektori importga juda bog'liq bo'lgani sababli global narxlardagi o'zgarishlarga qarshi himoyasiz qiladi. Quyosh va shamol kabi qayta tiklanadigan energiya manbalariga o'tishga qaratilgan sa'y-harakatlar importga qaramlikni kamaytirish va energiya narxining barqarorligini ta'minlashga olib kelishi mumkin.

2023-yil 6-fevralda Turkiyada sodir bo'lgan vayronkor zilzila jiddiy iqtisodiy ta'sir ko'rsatdi. Infratuzilma, uylar va korxonalarning vayron bo'lishi, millionlab odamlarning ko'chirilishi bilan birga mahalliy va milliy iqtisodiyotni izdan chiqardi. 3,3 milliondan ortiq odamning ko'chirilishi, taxminan 345 000 ta binoning vayron bo'lishi va 4 millionga yaqin binolarning zarar ko'rishi qurilish materiallari va uy-joyga bo'lgan talabni oshirib, narxlarning oshishiga olib keldi. Ya'ni qurilish materiallari, qishloq xo'jaligi va energetika kabi tarmoqlarda narxlarning 115% gacha oshishiga olib keldi. Qishloq xo'jaligi hududlarining vayron bo'lishi va ta'minot zanjirlarining uzilishi oziq-ovqat va zaruriy tovarlar tanqisligiga olib keldi. Masalan, oziq-ovqat, ayniqsa sabzavot, go'sht va sut mahsulotlari kabi asosiy mahsulotlar narxini 69 % ga oshirdi (Xinxua news).



Qurilish materiallari 15% oshgan. (115%)
Oziq ovqat narxi 69% oshgan. (169%)



Fevral zilzilasidan oldin va keyin Turkiyada 2023-yilda inflyatsiya darajasining o’zgarishi. (TurkStat, World Bank)

6.Huquqiy (legal) omillar.

Hukumat aralashuvining bir qancha asosiy yo’nalishlari, jumladan soliq siyosati, mehnat qonunlari va kichik va o’rta korxonalarni qo’llab-quvvatlash inflyatsiya tendentsiyalariga ta’sir qiladi.

Soliq qonunlari yoki import ta'riflarining o’zgarishi tovar va xizmatlar tannarxiga bevosita ta’sir qiladi, bu esa inflyatsiyaga ta’sir qiladi. Masalan, qo‘shilgan qiymat solig‘ining oshishi yoki yangi soliqlarning joriy etilishi tovar va xizmatlar narxini oshirishi mumkin. 2021 yilda Turkiya fiskal nomutanosibliklarni bartaraf etish uchun ayrim iste’mol tovarlari uchun QQSni oshirdi, bu esa narxlarning oshishiga olib keldi. Xuddi shunday, import qilinadigan tovarlarga yuqori ta'riflar ularning narxini oshirishi mumkin, bu esa ichki bozorda inflyatsiyaga olib keladi. Misol uchun, 2023 yilda Turkiya iqtisodiy bosimni boshqarish uchun energiya va iste’mol tovarlariga soliqlarni o’zgartirdi, bu esa inflyatsiyaga bilvosita ta’sir ko’rsatdi. Yoki 2021 yilda Turkiyaning avtomobil sektori import bojlarining oshishi va turk lirasining zaiflashishi tufayli narxlarning o’sishiga olib keldi. Bu ko’tarilgan xarajatlar iste’molchilarga o’tib, ushbu sektorda inflyatsiyaga hissa qo’shdi. Mehnat to’g’risidagi qonunlarga o’zgartirishlar yoki eng kam ish haqining o’zgarishi ham inflyatsiya darajasi o’zgartiradi. Turkiyada ishchilarning xarid qobiliyatini himoya qilish uchun yuqori inflyatsiyaga javoban ish haqini oshirish ko’pincha amalga oshiriladi, ammo bu o’sishlar ishlab chiqarish xarajatlarini ham oshirishi mumkin. Misol uchun, 2023 yilda Turkiya hukumati ishchilarga inflyatsiya bilan kurashishda yordam berish uchun eng kam ish haqini 55% ga oshirdi, ammo bu biznes uchun xarajatlarning oshishiga olib keldi, bu esa yuqori narxlar ko’rinishida iste’molchilarga o’tdi.

Inflyatsiyani yumshatishda kichik va o’rta korxonalarni davlat tomonidan qo’llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega. Turkiyada hukumat kichik va o’rta biznesni qo’llab-quvvatlash uchun kreditlarni subsidiyalash va soliq imtiyozlari berish kabi bir qancha siyosatlarni amalga oshirdi. Ushbu chora-tadbirlar inflyatsiyani barqarorlashtirishga yordam beradigan iqtisodiy o’sishni rag’batlantirishga qaratilgan. Biroq, agar ehtiyotkorlik bilan boshqarilmasa, bu qo’llab-quvvatlash pul taklifining o’sishiga yoki ortiqcha talabga olib kelishi mumkin, bu esa inflyatsiya bosimiga yordam beradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Turkiyada so‘nggi yillarda o‘sib borayotgan inflyatsiya darajasiga siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik, atrof-muhit, huquqiy qarorlar va islohotlarning barchasi ta‘sir qilmoqda. Mamlakatda inflyatsiya natijasida pulning qadrsizlanishi o‘sib borayotganligi sababli, narx-navo juda ham baland. Bu esa bevosita xalqning norozligini oshirmoqda. Aholining hukumatga ishonchi pasayib ketayotgan bir sharoitda Turkiya hokimiyati erkin bozor qoidalarga aralashishni kamaytirishi va an‘anaviy iqtisodiy siyosatini to‘xtatishiga to‘g‘ri keladi. Chunki yuqori inflyatsiya darajasi mamlakatning xalqaro miqyosda obro‘yini tushirib yuborishi va boshqa davlatlarning Turkiya ichki bozoriga qiziqishini kamaytiradi. Hozirgi davrda bozor o‘z qoidalarini o‘zi yaratadi va davlatning aralashuvi ko‘p hollarda yomon natijalarga olib kelishi mumkin. Ko‘rib turganimizdek, Turkiya inflyatsiya darajasini pasaytirish uchun barcha harakatlarni amalga oshirishga harakat qilmoqda. Ba‘zi islohotlar inflyatsiyani pasaytirsa, ba‘zi birlari esa o‘ylagan natijani bermayapti. Agar hukumat inflyatsiya darajasini o‘z vaqtida pasaytirmasa, buning oxiri hukumat almashinuvi bilan tugashi mumkin.

TAVSIYALAR

Mamlakatda inflyatsiya darajasini pasaytirish uchun avvalo Erdog'on tomonidan olib borilayotgan an'anaviy monetar siyosatni o'zgartirish kerak. Chunki foiz stavkasini doimiy past ushlab turish inflyatsiyaning asosiy omillaridan biridir. Undana tashqari davlat xalqaro miqyosda investerlar e'tiborini jalb qilish uchun davlat bozorga arlashmasligi va Markaziy bank mustaqilligini ta'minlashi kerak. Xalqaro geosiyosatda qo'shni va kuchli davlatlar bilan aloqasini yaxshilash malakatda eksport va importni yaxshilashi mumkin. Tashqi qarz miqdorini kamaytirish o'z navbatida davlatda liraning qadrsizlanishini oldini oladi. Xalq norozliklarini oldini olish esa hukumatga bo'lgan aholining va tashqi dunyoning ishonchini oshiradi. Turkiya hukumati inflyatsiyaning oldini olishda har bir soha ya'ni siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy sohalarga katta e'tibor qaratishga majbur. Agar bunday qilmasa, mamlakat o'z mavqeyini yo'qotgan holda giperinflyatsiyaga uchrashi mumkin.

REFERENCES

1. Béland, D., Cantillon, B., Greve, B., Hick, R., & Moreira, A. (2023). Understanding the Inflation and Social Policy Nexus. Social Policy and Society, 23(1), 1–13.
2. O. Cevdet Akgay, C. Emre Alper, & Suleyman Ozmucur. (2018). Budget Deficit, Inflation and Debt Sustainability: Evidence from Turkey, 1970-2000. RePEc: Research Papers in Economics, 83–102.
3. Kia, A. (2010). Money, Deficits, Debts and Inflation in Emerging Countries: Evidence from Turkey.

4. Turkish Statistical Institute (TUIK) https://www.tuik.gov.tr/
5. https://www.worldbank.org/
6. https://doi.org/10.1017/s147474642300034
7. https://www.bbc.com/uzbek/lotin/2013/06/130603_latin_turkey_protests
8. https://www.macrotrends.net/global-metrics/countries/TUR/turkey/consumer-spending
9. https://tradingeconomics.com/turkey/core-consumer-prices
10. https://daryo.uz/2021/12/02/turk-lirasining-kursi-bir-oy-ichida-40-foizga-bir-yil-ichida-deyarli-ikki-baravarga-tushdi-bunga-erdoganning-pul-siyosatidagi-mantiqsiz-qarashlari-aybdor-deb-hisoblanmoqda
11. https://complyadvantage.com/insights/turkey-sanctions/
12. https://www.trade.gov/country-commercial-guides/turkey-market-challenges
13. https://ohmyecon.org/journal/understanding-turkeys-inflation-and-economic-crisis
14. https://www.insightturkey.com/commentaries/insights-into-turkiyes-technology-development-journey
15. https://www.agbi.com/real-estate/2023/12/turkish-housing-crisis-persists-despite-construction-surge/
16. https://english.news.cn/20230307/cdcf8030215147dfb7046a8ab8a6ea7c/c.html
17. https://www.worldbank.org/en/news/feature/2024/02/05/from-earthquake-devastation-to-resilient-revival-in-turkiye
18. https://www.pik-potsdam.de/en/news/latest-news/climate-change-risk-to-price-stability-higher-average-temperatures-increase-inflation-1
19. https://www.rescue.org/eu/article/one-year-later-impact-syria-turkiye-earthquakes
20. https://www.imf.org/-/media/Files/Publications/WP/2023/English/wpiea2023087-print-pdf.ashx
21. https://www.aa.com.tr/en/environment/food-insecurity-turkeys-top-climate-change-risk/2230992
22. https://www.mfat.govt.nz/assets/Trade-General/Trade-Market-reports/Tuerkiye-a-global-manufacturing-hub-September-2023.pdf
23. https://www.trade.gov/country-commercial-guides/turkey-advanced-manufacturing
24. https://portulansinstitute.org/the-turkish-exporters-assembly-tells-us-about-turkeys-digital-transformation-and-how-to-stay-future-ready/